

O‘QITISH VA O‘RGANISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN
YONDASHUVNING AHAMIYATI

Abdurakhmonov Odiljon

Jizzakh State Pedagogical University

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘qitish va o‘rganishdagi ahamiyati o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Bugungi kunda o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuvdan voz kechishga urg‘u kuchayib borayotganligi sababli o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv e‘tibor markazida bo‘la boshladi. Yondashuvning ushbu turi keng tarqalgan va qo‘llanilib kelayotgan bo‘lsa-da, o‘qituvchiga va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning bir-biriga bevosita bog‘liqligini hisobga olgan holda uni qanday samarali ishlatish mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. Ushbu maqola bir qancha maqolalarni ko‘rib chiqadi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish usullarini hamda ularning mazmunini tematik tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu izlanish, o‘qitish va o‘rganishda shaxsga yo‘naltirilgan elementlarning yaxshilashida yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *talabalarga yo‘naltirilgan, kichik guruhlardagi muhokamalar, loyiha asosidagi ta‘lim, muammoli ta‘lim, texnologiyaga asoslangan ta‘lim, moslashuvchan ta‘lim.*

KIRISH

Ta‘lim va o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bugungi kunda, ta‘lim sohasida o‘qituvchiga yo‘naltirilgan yondashuvdan ko‘ra yaxshiroq natijalarni ko‘rsatayotgan yondashuv bo‘lib kelmoqda. Ushbu mavzuda bir qancha xorijlik olimlar izlanishlar olib borgan bo‘lib, ulardan I.Emaliana, D.Tang, T.Keinonen, L.Murphy, N.B.Eduljee, K.Croteau kabi olimlarning ishlari, MDX olimlar O.Kisel, A.Dubskikh, A.Butova ishlari, o‘zbek olimlaridan esa prof. J.Jalolov, T.Sattorov, M. Axmedova, X.G‘ulomjonova kabilarning ilmiy ishlari va maqolalari ayniqsa, taqsiqsa sazovordir.

An‘anaviy, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta‘limda, odatda o‘quv dasturlari talablarini qondirish uchun bilim berish va ma‘lumot bilan ta‘minlashga qaratilgan va ko‘pincha o‘qitish mazmuni o‘quv dasturlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Darslarda axborot oqimi faqat bir tomonlama bo‘lib, talabalar va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro mazmunli aloqalarni kamdan-kam kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan, talabalar doimo o‘zlarining bilimlarini aytish yoki ko‘rsatib berishga qiynaladigan, passiv ma‘lumot qabul qiluvchi sifatida



darsda qatnashadilar. Bunda o'rganilayotgan bilim o'qituvchiga tegishli bo'lib, bilimlarni o'zlashtirishda talabalarning ishtiroki minimal darajada bo'ladi. [Lojdova, 2019:32]. Ko'pincha bunday yondashuv talabalarning o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanish qobiliyatini buzadi

Talabalarni o'rganishga yanada yaxshiroq jalb qilish uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuv joriy etildi va u ko'pincha o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvdan ko'ra foydaliroqdir. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv konstruktivizm kontseptsiyasiga asoslanadi, ya'ni o'quvchilar yangi ma'lumotni allaqachon bilgan narsalari bilan bog'lash orqali o'rgangan narsalariga ma'no beradilar. O'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvdan farqli o'laroq, o'rganuvchiga yo'naltirilgan yondashuv bilimlarni o'zlashtirish yo'nalishini o'qituvchilardan talabalarga o'tkazadi, shuningdek, ma'lumot olish va ma'lumotni tushunish mas'uliyatini ham o'quvchilar zimmasiga yuklaydi, o'qituvchilar esa yordamchi sifatida ishlaydi. Eng ideal ma'noda, talabalar o'z ta'limini o'z zimmalariga oladilar, dars mazmunini tuzadilar va o'z ta'lim yo'llarini ham belgilaydilar [Emaliana, 2017:61]. Ammo, amalda o'qituvchi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi. Ular misoli tarozining ikkita pallasidir va ular orasida uzluksiz faoliyat mavjud.

Bugungi kunda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga qiziqish katta. o'qituvchilar va o'rganuvchilar o'rtasida mashhurligiga qaramay, o'rganuvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishni ta'minlovchi yetarli asoslar yo'q va ko'p hollarda talabalar ta'lim natijalariga qat'iy ishonch hosil qilish va o'quv tajribasini amalga oshirish uchun o'qituvchilarga tayanadilar. Ushbu maqolada o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish bilan bog'liq ma'nanalarni ko'rib chiqish orqali, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga tadbiiq qilish usullari taqdim etilgan va bunda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv samaradorligini oshirish maqsad qilingan.

2. METODLAR VA MATERIALLAR

Ushbu maqolada o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv qanday faoliyat ko'rsatishi haqidagi tegishli adabiyotlar ko'rib chiqildi. Izlanishlar “ScienceDirect”, “Scopus” va “Web of Science” kabi ilmiy ma'lumotlar bazalari adabiyotlari va bir qancha milliy va xalqaro ilmiy tadqiqot jurnallarini o'z ichiga oladi. Izlanish shaxsga yo'naltirilgan, o'rganish, ta'lim, yondashuv va pedagogika kabi kalit so'zlar hamda qidiruvni takomillashtirishda talabaga yo'naltirilgan ta'lim va talabaga yo'naltirilgan yondashuv kabi kalit so'zlarning kombinatsiyasi bilan olib borildi. Qidiruv natijasida dastlab mavzuga oid 35 ta maqola topildi. Ushbu maqolalar dolzarbligi uchun tekshirildi. Maqolalarni saralash va tanlashda quyidagi



saralash mezonlari asosida olib borildi: 1) Maqolalar o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan bog'liq bo'lishi; 2) Maqolalar ilmiy xarakterga ega bo'lishi va ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilishgan bo'lishi kerak; 3) Maqolalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni idrok etishga qaratilgan, ammo, uning qanday amalga oshirilishini ko'rsatmagan maqolalar, bundan mustasno. Ko'rib chiqish va saralashdan so'ng jami 14 ta maqola taqrizga kiritildi.

3. NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv turli mintaqalarda turli ta'lim darajalaridagi kurslarda joriy etilmoqda, chunki o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvdan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish tobora ko'proq ahamiyat berilmoqda. Maanbalarni o'rganishda yondashuvni amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan umumiy amaliyot va qonuniyatlar aniqlandi. Kichik guruhlardagi bahs-munozaralar o'rganuvchilar muayyan vazifalar ustida ishlashlari uchun asosiy amaliyotlardan biridir. O'rganuvchilar kichik guruhlarda o'zaro munozaralarda qatnashadilar va ularga ko'pincha o'qituvchilar tomonidan yo'nalishlaridan chiqib ketmasliklari uchun yordam beriladi. Bunday munozaralar turli mavzular atrofida g'oyalar aqliy hujumi, kontseptsiyalarni tushunish, muammolarni aniqlash, ishlarni ko'rib chiqish va yechimlarni o'rganishgacha borishi mumkin. Kichik guruhlardagi munozaralar tengdoshlarning o'zaro ta'sirini va g'oyalar, tushunchalar va yechimlarni o'rganish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni rag'batlantiradi [Mattila, 2022:61]. Ular o'rganuvchilarga ma'lumot qidirish va o'quv dasturlari yoki darsliklarda belgilanganidan tashqari o'rganishni boshlash imkonini beradi.

3.1. LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM.

Loyihaga asoslangan hamkorlikdagi o'qitishda o'rganuvchilarga ko'pincha ishlash uchun loyihalar beriladi. Bu shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning yana bir asosiy xususiyati hisoblanadi. Loyihalar jamiyat loyihalari bo'lishi mumkin, unda talabalar jamiyat muammolarini aniqlashlari, yechimlarni taklif qilish va amalga oshirish uchun keng ko'lamli tadqiqotlar orqali muammolarni tahlil qilishlari kerak. Jamiyat loyihalari talabalarga haqiqiy muammolarni hal qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga imkon beradi va bu jarayon orqali ular xizmat ko'rsatadigan jamoalar bilan aloqa o'rnatadilar. Jamiyat loyihalari talabalarda muloqot qilish, yetakchilik va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantiradi va ularga loyihalarda istalgan natijalarga erishish uchun erkinlik beradi. Ta'kidlash lozimki, o'qituvchilar istalgan natijalarni belgilashda va talabalarni loyihalarning barcha bosqichlarida yo'naltirishda muhim rol



o'ynaydi. Bunday loyihalarning namunasi sifatida: jamiyatda ma'lum bir tilni to'g'ri qo'llanishini rag'batlantirish tadbir va tashviqotlari orqali jamiyatda tilning ahamiyati oshirish kabilarni aytish mumkin. Talabalar loyihaning boshlanishidan yakunigacha bo'lgan butun davr jarayonida, shu jumladan loyihalar samaradorligini kuzatishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar [Tang, 2022:9-10]. Loyiha asosida o'qitishning yana bir shakli laboratoriya va eksperimental loyihalashda namoyon bo'ladi. Loyihalash jarayonida talabalar 1) dizaynni kontseptuallashtirish, 2) loyihani sinab ko'rish uchun faol eksperiment, 3) to'liq loyihani amalga oshirish bo'yicha aniq tajriba, 4) dizaynning samaradorligini kuzatish uchun amaliy operatsiyalarda ishtirok etadilar. Yakunda talabalar loyihani tasdiqlash va optimallashtirish uchun olingan bilim va tajribalar asosida fikr yuritadilar.

3.2. MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM (CASE-STUDY).

Muammo o'rganuvchilardan yechilishi so'raladigan savol yoki ssenariy bo'lishi mumkin va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda bu odatda mustaqil o'rganishni rag'batlantirish uchun ma'ruzalardan oldin beriladi. Ma'ruzalar davomida talabalar yechimlarni muhokama qilishlari mumkin, o'qituvchilar esa keyingi muhokamalarga yo'naltirishlari yoki mavzuni chuqurroq o'rgatishlari mumkin. U tibbiyot sohasida, masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish kasalliklari haqida bilimlarni oshirish va ularga munosabatni shakllantirish va hamshiralik ta'limida keng qo'llaniladi [Matilla, 2022:73]. Hodisalar yoki ssenariylar ustida ishlash jarayonida talabalar tez-tez ega bo'lgan nazariy bilimlarga murojaat qilishlari va ularni mustahkamlashlari, shuningdek, yangi bilimlar orttirishlari mumkin. Bu jarayon darsliklarda belgilanmagan va u to'liqligicha o'rganuvchilarning holatlar yoki ssenariylar doirasida ishlashlariga asosladi.

3.3. TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QITISH.

Texnologiyalar yordamida ta'lim o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan bog'liq adabiyotlarda paydo bo'layotgan yana bir muhim mavzudir. Bu shunchaki, o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishni ta'minlaydigan elektron platformalarga kirishiga rahbarlik qilish va ularni jalb qilish uchun texnologiyani o'qitishga kiritishni anglatadi. Mobil telefonlarning turli xil maqsadlarda keng qo'llanilishi mobil texnologiyani o'qitish va o'rganish uchun, ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda, ideal vositaga aylantirdi. O'qituvchilar mobil texnologiyani o'qituvchilar va o'rganuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish vositasi sifatida qabul qildilar, bu o'rganuvchilarga yordam olishga, o'qituvchilarga esa talabalarning ehtiyojlariga samarali javob berishga imkon beradi. Mobil



texnologiya geografik jihatdan bir-biridan uzoqda bo'lgan o'rganuvchilarni birlashtirgani sababli, o'rganuvchilar qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar o'rganishda hamkorlik qilishlari mumkin. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi bilan mobil texnologiyalarni muayyan vazifalarni bajarishga o'rgatish ham mumkin. Texnologiyalar yordamida o'qitishning boshqa misollari - onlayn ta'lim va aralash ta'limdir. Texnologiyalar o'rganish uchun foydali bo'lsa-da, ular o'rganishning belgilangan maqsadlarga parallel ravishda amalga oshirilishini ta'minlash uchun nazorat va monitoringga muhtoj.

3.4. MOSLASHUVCHAN TA'LIM.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning muhim xususiyati adaptiv o'qitishdir. Bunda o'qituvchilarga o'rganuvchilarning o'rganishga qiziqishi bo'yicha, mo'ljallangan ta'lim natijalaridan kelib chiqqan holda, kurs mazmuniga o'zgartirishlar kiritish imkonini beruvchi moslashuvchan o'quv dasturini nazarda tutiladi. O'rganuvchilar g'oyalarni ishlab chiqish uchun kichik guruhlarda aqliy hujum mashg'ulotlariga jalb qilinishi mumkin va bu g'oyalar darslarga kiritilishidan oldin tengdoshlar tomonidan beriladigan sharhlar uchun ochiq bo'ladi. Xuddi shunday, o'rganuvchilar kursning maqsadlari va ta'lim natijalari to'g'risida yetarlicha ma'lumot olgandan so'ng, kurs bo'yicha o'zlariga kerakli mazmunni, baholash shakllarini va faoliyatini qo'lga kiritish uchun zaruriy ko'rsatmalar orqali boshqarib turilishi mumkin. Shuningdek, moslashuvchan ta'lim o'qituvchilar talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni loyihalash va o'tkazish uchun yordam beradi [Thanheiser, Melhuish, 2023:37]. Bundan tashqari, bu o'qituvchilarga kurslar davom etayotganda talabalarning fikr-mulohazalari va ishtiroki asosida iqlim o'zgarishi kabi tez rivojlanayotgan muammolarning so'nggi ma'lumotlarini kurs mazmuniga kiritish imkonini beradi.

XULOSA

O'rganish kichik guruhlardagi muhokamalar, loyiha asosidagi ta'lim, muammoli ta'lim, texnologiyaga asoslangan ta'lim, moslashuvchan ta'lim orqali o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga joriy etishni yoritadi. Uni amalga oshirishning barcha shakllarida shaxsga yo'naltirilgan amaliyotlar o'qituvchiga yo'naltirilgan va o'rganuvchiga yo'naltirilgan yondashuvlar o'rtasida joylashgan. O'qituvchilar markazda bo'lishdan voz kechishmoqda va o'rganish to'g'ri yo'nalishlarda amalga oshirilishini va mo'ljallangan natijalarga erishishni ta'minlashda muhim rol o'ynashmoqda. O'qituvchilar ko'pincha fasilitator sifatida qabul qilinadi, lekin ularning ishtiroki o'rganuvchilarning darajalari va yetukligiga, shuningdek, ular amalga oshiradigan o'rganuvchilarga qaratilgan amaliyot turlariga qarab



farq qiladi. Shuningdek, ularning nazorati, qo'llab-quvvatlashi va monitoringi ushbu amaliyotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashi ko'rsatadi. O'qituvchilar o'z dasturlarini o'rganuvchilarning qiziqishini hisobga olgan holda rejalashtirishlari va amalga oshirishlari va shu orqali, o'quvchilarning o'rganishdagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Biroq, hali ham kamdan-kam hollardagina o'rganish butunlay shaxsga qaratilmoqda. Shu sababli, hozirgi ta'lim amaliyotlari ko'pincha o'qituvchiga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar o'rtasida joylashgan. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qanday ishlatishni bilish va uning o'qitish va o'rganishdagi ulushini oshirish orqali o'rganuvchilarning o'rganish qobiliyati va uning samaradorligini oshirish mumkin deb umid qilinadi. Shu bilan bir qatorda, kelajakdagi tadqiqot yondashuvni amaliyotga tatbiq etishning yangi vositalarini o'rganishdan tashqari, o'qitish va o'rganishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nisbati va samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rib chiqishi ahamiyatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova, M., & G'ulomjonova, X. (2024). Learner-centered education in foreign language teaching context of Uzbekistan. Fergana State University Conference, 68. <https://conf.fdu.uz/index.php/conf/article/view/2800>
2. Emaliana, I. (2017). Teacher-centered or student-centered learning approach to promote learning? *Jurnal Sosial Humaniora*, 10, 59–70.
3. Jalolov J.J. (2012) Chet tili o'qitish metodikasi-Toshkent: 133-144.
4. Kang, J.; Keinonen, T. (2018). The Effect of Student-Centered Approaches on Students' Interest and Achievement in Science: Relevant Topic-Based, Open and Guided Inquiry-Based, and Discussion-Based Approaches. *Research in Science Education*, 48, 865–885. <https://doi.org/10.1007/s11165-016-9590-2>.
5. Kisel O., Dubskikh A., Butova A. (2020) Difficulties in Applying a Student-Centered Approach in Modern Russian Higher Education. 95-103
DOI:10.31992/0869-3617-2020-29-8-9-95-103
6. Lojdová, K. (2019). Socialization of a student teacher on teaching practice into the discursive community of the classroom: Between a teacher-centered and a learner-centered approach. *Learning, Culture and Social Interaction*, 22, 100314. <https://doi.org/10.1016/j.lcsi.2019.05.001>.
7. Mattila, A.M.; Astle, J.K.; Calhoun, B.C.; LaCroix, R.; Santacecilia, G.; D'Acunto, K.; Cavanaugh, J.E.; Morgan, A.A.; Lassila, H. (2022). A



student centered interprofessional awareness program to increase knowledge and improve attitudes about substance use disorder.

8. Murphy, L.; Eduljee, N.B.; Croteau, K. (2021). Teacher-centered versus student-centered teaching: Preferences and differences across academic majors. *Journal of Effective Teaching in Higher Education*, 4, 18–39. An Educator’s Reflection. *Acta Pedagogica Asiana*, 2(2), 54–63.

9. Sattorov T.Q. Bo’lajak chet til o’qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi // T.: TDUI, 2003.- 192 b.

10. Tang, K. H. D. (2022). Reflection of an Online Climate Change Course and Its Pedagogies: Retrospection and Prospect. *Acta Pedagogica Asiana*, 2, 1–13. <https://doi.org/10.53623/apga.v2i1.104>.

11. Thanheiser, E.; Melhuish, K. (2023). Teaching routines and student-centered mathematics instruction: The essential role of conferring to understand student thinking and reasoning. *The Journal of Mathematical Behavior*, 70, 101032. <https://doi.org/10.1016/j.jmathb.2023.101032>.

